

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8  
2023



Tosh o'rmoni  
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'lqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi .....	6
<b>Muxiddin Kalonov</b> , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
<b>Jumayev Olimjon Sadulloyevich</b> , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
<b>Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
<b>Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li</b> , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi .....	34
<b>Mamaraximov Bekzod Erkinovich</b> , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
<b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
<b>Berdiyev Anvar Abduraxmonovich</b> , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati .....	56
<b>G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish .....	61
<b>Olimjanova Nigora Alisherovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
<b>Saydirasulov Laziz Alimovich</b> , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar .....	71
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Axmedov Akbarali Sultonmurodovich</b> , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций .....	78
<b>Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич</b> , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
<b>Махмудов Носир Махмудович</b> , д. э. н., профессор; <b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b> , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
<b>Sherali Xolliyev</b> , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnı rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni .....	94
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
<b>Xakimov Ziyodulla Axmadovich</b> , dotsent; <b>Axmadova Rayxona Jasurbek qizi</b> , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
<b>Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi</b> , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
<b>Abdiyeva Flora Botir qizi</b> , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar .....	114
<b>Abdullayev Farxod Ozodovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari .....	119
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country .....	125
<b>Sanakulova Barnogul Rizakulovna</b> , Doctor of Economic Science, Professor;	
<b>Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli</b> , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
<b>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</b>	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution .....	133
<b>Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li</b>	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili .....	138
<b>Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li</b> , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida .....	151
<b>Sharifi Ahmad Sakhrob</b> , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....	156
<b>Суюнова Фотима Баходир кизи</b> , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози .....	161
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
<b>G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi</b> , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане .....	174
<b>Жуманиязова Феруза</b> , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
<b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b> , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
<b>Nilufar Sharipova</b> , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar .....	197
<b>Nurillayev Jamoliddin Yarashevich</b> , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b> , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi .....	208
<b>Razzaqov Jasur Hamraboievich</b> , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
<b>Рузиева Дилноза Абдусаматовна</b> , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari .....	216
<b>Saydullayev Shaxzod Sherzodovich</b> , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения .....	222
<b>Хажиев Бахтиёр Душабоевич</b> , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari .....	227
<b>Adizov Sardor Rashidovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish .....	231
<b>Mamatov Sardor Axmatjonovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
<b>Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li</b> , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана .....	243
<b>Мирзахалилова Азизахон Алишеровна</b> , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish .....	249
<b>Sultanov Maxmud Axmedovich</b> , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni .....	254
<b>Xojoyev Elshod Yoqub o'g'li</b> , PhD; <b>Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики .....	259
<b>Отакулов Махамаджон Каримович</b> , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	264
<b>Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li</b> , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
<b>Eshmatov Sanjar Ashirqulovich</b> , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
<b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich</b> , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
<b>Алимова София Розумбаевна</b> , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish.....	282
<b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b> , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
<b>N. N. Ismatullayeva</b> , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
<b>Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna</b> , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
<b>Жураева Нодира Фузулий кизи</b> , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari .....	310
<b>G. Abduvosidova</b> , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
<b>Nazarov Shohbek Isroilovich</b> , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
<b>Mamatov Axmetjon Atajanovich</b> , professor; <b>Allaberganova Zakir Gayibovich</b> , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li</b> , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....	330
<b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi .....	335
<b>Xoliqov Ulug'bek Rustamovich</b> , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba .....	341
<b>N.N.Ro'ziyev</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
<b>Astanov Sherzod Rustamovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
<b>Nosirova Charos</b>	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
<b>Irgasheva Gulbahor Sodiqovna</b> , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari .....	369
<b>Abduxamidova Gulxayo</b> , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili .....	374
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
<b>Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi</b> , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami .....	386
<b>Xайдарова Малика Шакирджановна</b> , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili .....	396
<b>S.T.Toshaliyeva</b> , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
<b>Ruzibayev Jahongir Nodirovich</b> , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
<b>Nabiiev Feruz Nurmurodovich</b> , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish .....	412
<b>Imomova Nodira Shavkatovna</b> tadqiqotchi, <b>Sultonov Mansur Qilichevich</b> PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
<b>Xashimova Naima Abitovna</b> , i.f.n., professor; <b>Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li</b> assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
<b>M.A.Saparova</b> , talaba	



# TUMANLAR VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH DARAJALARINI BAHOLASH USLUBLARI

**Nazarov Shohbek Isroilovich**  
Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tumanlar kesimida qishloqlarni barqaror rivojlantirish, mahalliy salohiyatidan samarali foydalanish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan uslublar tahlil qilingan hamda baholash usulalaridan, tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni baholashda, maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, indikator (ko'rsatkich)lar tizimi taklif qilingan. Yakka tartibda amalga oshirilgan baholash tizimi tumanlarni maqsadli guruhlarga ajratishda, qishloq joylarni guruhlash va turli sinflarga bo'lish, davlat tomonidan aniq maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun kerakli uslublardan foydalanildi.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, tadbirkorlik, tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kompleks baholash, indikatorlar, tabiiy-iqtisodiy salohiyat.

**Аннотация:** В данной статье анализируются методы, направленные на устойчивое развитие сельской местности, эффективное использование местного потенциала, поддержку малого бизнеса и предпринимательства в сельских районах, а также предлагается система показателей, исходя из целей и задач основанная на методах оценки социально-экономического развития районов. Индивидуально реализованная система оценки использовалась для разделения районов на целевые группы, для группировки сельских территорий и разделения их на разные классы, а также для разработки государством конкретных целевых мероприятий.

**Ключевые слова:** малый бизнес, предпринимательство, социально-экономическое развитие районов, комплексная оценка, показатели, природно-экономический потенциал.

**Abstract:** In this article, methods aimed at sustainable development of villages, effective use of local potential, support of small business and entrepreneurship in the region of districts are analyzed, and a system of indicators is proposed based on assessment methods, evaluation of social and economic development of districts, goals and tasks. The individually implemented evaluation system was used to divide districts into target groups, to group rural areas and divide them into different classes, and to develop specific targeted measures by the state.

**Key words:** small business, entrepreneurship, socio-economic development of districts, comprehensive assessment, indicators, natural-economic potential.

## KIRISH

Hozirda va kelajakda qishloq va tumanlardagi hali foydalanilmagan resurslar, imkoniyatlar va salohiyatning mavjudligi ular iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hamda ijtimoiy barqarorlikka erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan mintaqalarning quyi bo'g'inlarini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning assosiy mavzusi zamonaviy usullarni qo'llagan holda, hududlar o'rtafigi tafovutlarning sabablarini aniqlash, orqada qolayotganlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, ma'muriy taqsimlashdan mahalliy tabiiy-iqtisodiy va tadbirkorlik salohiyatlari imkoniyatlaridan keng foydalanish mezonlariga o'tish, nomarkazlashtirish siyosatining salbiy va ijobjiy oqibatlarini aniqlashga qaratilgan.

Erishilgan ijobjiy natijalar bilan bir qatorda, qishloq tumanlari iqtisodiyotini rivojlantirishda ma'lum muammolar ham mavjud. Jumladan, Buxoro viloyatida tumanlararo tafovut hududiy sanoatda 15,0, eksport bo'yicha 29,0 martani tashkil qiladi. Uning yuqori darajasi ma'lum ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, tumanlarda ijtimoiy-iqtisodiy o'sish, tabiiy-iqtisodiy salohiyat, tadbirkorlikni rivojlanishi o'rtafigi bog'liqlikda nomutanosibliklarni e'tiborga olgan holda tumanlar kesimida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash o'zining dolzarbliji bilan ajralib turadi.



## ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mintaqaviy siyosatning muhim yo'nalishi joylarda tadbirkorlik uchun keng yo'l ochishdan iborat bo'lib qolmoqda. Ilmiy-uslubiy nuqtayi nazardan, avvalam bor, biz tadbiqot obyektni aniqlashtirib olishimiz zarur. Mintaqaviy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya sohasida ilmiy-tadbiqot olib borayotgan olimlar va mutaxassislar o'ttasida mintaqaviy tizimni shakillanishida alohida hududlarning o'rni va chegarasi to'g'risida turli qarashlar va fikrlar mavjud.

A.G.Granberg mintaqalar tizimini dunyo, mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari (MDH), makroiqtisodiy zona, iqtisodiy hudud, mamlakatning hududiy-ma'muriy bo'linishi, deb guruhlangan.<sup>[1]</sup> O'zbekistonda M. Abdusaliyamov esa O'zbekistonni ikkita Sirdaryo va Amudaryo iqtisodiy zonaga bo'lishni taklif etgan.<sup>[2]</sup> A. Soliev va E. Axmedov ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda mamlakatni oltita iqtisodiy hududlarga (Toshkent, Sirdaryo, va Jizzax, Markaziy, Quyi Amudaryo, Janubiy, Farg'on'a) ajratgan holda o'rganishni ma'qullaganlar.<sup>[3]</sup> T.M.Axmedov, V.M.Shtul'berg va bir qator olimlar esa mamlakatning mintaqaviy tizimida asosiy o'rinni rasmiy hududiy-ma'muriy taqsimlanishiga qaratilishi kerakligini izohlab chiqqanlar.<sup>[4]</sup>

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tumanlar kesimida qishloqlarni barqaror rivojlantirish, mahalliy salohiyatidan samarali foydalanish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator ilmiy qarashlar va uslublarni chuqur tahlil qilish, ularni takomillashtirish va yangilarini ishlab chiqish juda dolzarb muammoga aylangan. Qishloq joylarning rivojlanishini bevosita amalga oshirish bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi.

**1-bosqich.** Jarayonlarning hozirgi holatini baholash, ularning salbiy va ijobjiy tomonlarini aniqlash, jumladan, tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash.

**2-bosqich.** Kelajakga tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiasining maqsad va vasifalarini ustuvor yonalishuvlarini aniqlash, tadbirkorlikning rivojlanish darajasini baholash.

**3-bosqich.** Strategiyasini amalga oshirish mexanizmlari va doimiy monitoringi.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash asosida tumanlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning birinchi boshqichida, ishlab chiqilgan uslubni qo'llagan holda, mavjud jarayonlarning hozirgi holatini baholash, salbiy va ijobjiy tomonlarni aniqlashga asosiy e'tibor qaratiladi. Baholash umumiyo bo'lib, u uchta yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi. Bular tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni, mahalliy tabiiy-iqtisodiy sayohiyatidan foydalanish darajasini, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini uning hozirgi saloyatini baholash dan va tizimli muammolarni aniqlashdan iborat. Ikkinchi bosqichda esa kelajakda tumanlarni rivojlantirishning asosiy maqsadi va vazifalari, ustuvor yo'nalishlari asoslanadi.

Uchinchи bosqich strategiyani amalga oshirish mexanizmlari, uning doimiy monitoring tizimini ishlab chiqishni ko'zga tutadi.

Hozirda qishloq tumanlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning yagona, olimlar tomonidan tan olingan uslublari deyarli yo'qdir. Ilmiy adabiyotlarda baholashning 100 dan ortiq turli usullari taklif etilgan. Lekin ular ma'lum maqsadlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ayrim kamchiliklarga ega shu sababli tumanlarning iqsodiy-ijtimoiy rivojlanish salohiyati darjasasi, tadbirkorlik faoliyatini bog'lashning majmuali tizimni ishlab chiqish dolzarb bo'lib, uning natijalari mavjud tizimli muammolarni va ichki imkoniyatlarni aniqlash orqali samarali boshqaruvni tashkil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, kompleks baholash tumanlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan baholash tizimini tumanlar darajasida ishlab chiqishda eng asosiy muammolardan biri kerakli ma'lumotlarni yetishmasligi yoki yo'qligidir.

Zarur ma'lumotlarni davlat statistika qo'mitasining hududiy organlaridan, tumanga joylashgan korxona va tashkilotlardan, aholi va tadbirkorlar bilan bevosita joylarda o'tkazilgan so'rovnama natijalaridan olish mumkin.

- Qishloq joylarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi muhim indikatorlarni asoslash;
- Tumanlarning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyat, tadbirkorlik bo'yicha indikatorlarini aniqlash va guruhlash;
- Indikatorlar orqali integral va uchta yo'nalish bo'yicha ummumiyo ballarni hisoblash;
- Baholash natijalari asosida tumanlarni turli yo'nalishlar bo'yicha guruhlarga ajratish;
- Guruhlarni chuqur tahlil qilish va boshqaruv bo'yicha qaror qabul qilish, chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Mamlakatimizda qishloq aholisi farovonligini ta'minlash, tumanlarda ijtimoiy sohani rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar qatoriga kiritilgan.<sup>[5]</sup> Birinchi navbatda nisbatan yuqori sur'atlar bilan o'sayotgan demografik salohiyat, mehnat resurslari yangi ish joylarni tashkil qilish va ishsizlik muammosini hal qilishga qaratilishi lozim. Shu sababli tumanlar kesimida demografik jarayonlarni o'rganish, mehnat bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, ishsizlik darajasini qisqartirish ijtimoiy rivojlanishbo'yicha indikatorlar orasida eng muhim hisoblanadi.



## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Tumanlarini baholash uslubi quyidagilarni o'z ichiga oladi. Bunda baholash uchun kerakli indekatorlarni tanlab olish juda muhimdir. Ular tumanlarni barqaror rivojlantirishning maqsad va vazifalari bilan o'zaro bog'-langan bo'lishi kerak. Umuman, tumanlarning barqaror rivojlanishini integral yakuniy baholashning hozirda amalga oshirishning uslublari bir-biridan ma'lum kriteriyalar orqali farqlanadi.

*Birinchidan*, baholashda, asosan, uchta yo'nalishga asoslanadi. Deyarli barcha uslublarda integral ko'rsat-kich ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni o'z ichiga oladi. Keyingi yo'nalishlar esa turli holatlarni baholashga mo'ljalangan. Bizning fikrimizcha tabiiy-iqtisodiy salohiyat va tadbirkorlik faoliyati alohida yo'nalish sifatida taklif etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydag'i "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida" qaroriga ko'ra, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni reyting baholash tizimi 8 ta yo'nalishni (iqtisodiy, ijtimoiy, mehnat bozori, infratuzilma, raqobatbardoshlik, ishbilarmonlik, bank-moliya, ma'lumotlarning ochiqligi) qamrab olgan.<sup>[6]</sup>

*Ikkinchidan*, ko'pgina baholash uslublarida ballar (indeks)ni hisoblashda, o'rtacha arifmetika darajadan foydalangan holda, ko'rsatkichlar va yo'nalishlarning kerakli darajasi ilmiy asoslanmagan.

*Uchinchidan*, hududlarni taqqoslashda, asosan, o'rtacha hudud ko'rsatgichdan foydalaniladi.

*To'rtinchidan*, baholashda ishlatalidigan ko'rsatkichlar ma'lum davrdagi darajasi va o'zgarishi bilan o'chanadi.

*Beshinchidan*, ko'pgina usullarda ballar, asosan, rasmiy statistika ma'lumotlariga asoslanadi. Lekin qishloq joylarda barcha ko'rsatgichlar buyicha rasmiy ma'lumot bo'limganligi sababli so'rovnoma natijalaridan hamda ekspertlar xulosalaridan foydalaniladi.

Yuqorida keltirilgan baholash usullaridan, tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashda maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, indikator(ko'rsatkich)lar tizimi taklif qilingan. (1-jadval)

**1-jadval:** Tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash indikatorlari<sup>1</sup>

No	Indikatorlar nomi	O'chov birligi
	Iqtisodiy rivojlanish darajasi	baholash
1	Tumanning yalpi mahsulot hajmi	mln so'm
2	Tuman yalpi mahsulotning tarkibi: qishloq xo'jaligi sanoat xizmatlar	baho foiz foiz foiz
3	Aholi jon boshiga qishloq xo'jalik mahsulotlarning hajmi	mln so'm
4	Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarning hajmi	mln so'm
5	Aholi jon boshiga xizmatlar mahsulotlarning hajmi	mln so'm
6	Aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi	mln so'm
7	Aholi jon boshiga eksport hajmi	mln so'm
	Ijtimoiy rivojlanish darajasi	baholash
1	Aholi sonining yillik o'sishi	foiz
2	Mehnat resurslarning yillik o'sishi	foiz
3	Ihsizlik darajasi	foiz
4	Aholi ehtiyojlarini qondidirish (infrastruktura)	So'rovnoma natijalari, rasmiy ma'lumotlar
	Tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan foydalanish darajasi	baholash
1	Qishloq xo'jaligi xom ashyosidan foydalanish darajasi	foiz
2	Mineral xom ashyosi resurslaridan foydalanish darajasi	foiz
3	Sug'oriladigan yerlardan foydalanish darajasi	foiz
4	Yaylovlardan foydalanish darajasi	foiz
5	Turizm salohiyatidan foydalanish darajasi	foiz
6	Moliyaviy salohiyatining (mahalliy byudjetning) to'lov qobiliyati	foiz
7	Tumanning transport geografik joylashuvi	ijobiyl-salbiy
8	Ekologik salohiyatning ahvoli	ijobiyl-salbiy

1 Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan



	Tadbirkorlikning rivojlanish darajasi	baholash
1	Kichik biznesning sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi	foiz
2	Kichik biznesning xizmatlar hajmidagi ulushi	foiz
3	Kichik tadbirkorlik subyektlari sonini 1000 kishiga to'g'ri kelishi	birlik
4	Kichik tadbirkorlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) band bo'lganlarning umumiy bandlikdagi ulushi	foiz

Umuman olganda, tumanlardagi mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatni aniqlash, foydalanish darajasini baholash, nisbiy afzaliklardan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlantirishda foydalanish kelgusi taraqqiyot uchun yo'l ochib beradi.

Taklif etilayotgan to'rtinchi yo'naliш indikatorlaridan tumanlarda tadbirkorlikning rivojlanish darajasi, uni tashkil qilishdagi tizimli muammolarni aniqlash, kelajak strategiyasini asoslash uchun foydalanish mumkin. Avvalambor, kichik biznes va tadbirkorlikni qishloq iqtisodiyotidagi o'rni va qo'shayotgan hissasini aniqlash kerak. Tadbirkorlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar (xizmatlar) hajmi va soni tumanlararo taqqoslashda qo'llaniladi.

Indikatorlar tizimi orqali qishloqda tadbirkorlikni SWOT tahlili asosida salbiy va ijobji tomonlari imkoniyat darajada aniqlanadi. Har bir tuman kesimida tadbirkorlikni yuritishning o'ziga xos xususiyatlari (tabiiy-iqtisodiy) salohiyati muvofiqlashtiriladi. Ayniqsa, bandlikni ta'minlashning nostandart shakllari bo'lmish oilaviy biznes, hunarmandchilik, kooperatsiya, o'z-o'zini band qilish, tomorqa xo'jaligidan samarali foydalanishda tadbirkorlik uchun katta imkoniyatlar mavjud.<sup>[7]</sup>

Tanlab olingan indikatorlar to'rtta yo'naliш (iqtisodiy, ijtimoiy, salohiyat va tadbirkorlik)lardan alohida va o'zaro bog'liq holda vaziyatni baholash va chuqur tahlil qilishda keng foydalaniladi. Tahlilning muhim yo'naliшlaridan biri tumanlar ortasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlikni tashkil qilishdagi tafovutlarni aniqlashdan iborat. Bunda mavjud tafovutlarning obyektiv va subyektiv omillari aniqlanadi va yuqori darajadagi asoslanmagan farqlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Tumanlar o'tasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqni ma'lum darajaga qisqartirish aholi farovonligidagi yuqori tafovutlarni yo'qotish, kambag'allikni tugatish, viloyatning hududiy tarkibini takomillashtirishga olib keladi.

Integral, umumiy, yakka tartibda amalga oshirilgan baholash tizimining natijalaridan tumanlarni maqsadli guruhlarga ajratishda foydalaniladi. Bizning fikrimizcha, qishloq joylarni guruhlash va turli sinflarga bo'lish muhim bo'lib, bu davlat tomonidan aniq maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun kerakli uslubdir. Aholining zichligi va tabiiy-iqlim sharoitiga mos ravishda guruhlash har bir tuman, qishloq va mahalla kesimida tabaqalashgan siyosatni olib borishga, ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini hisobga olishni ta'minlaydi. Guruhlash uslubi orqali qishloq tumanlari tarkibidagi siljishlar, ixtisoslashuv darajasi, tabiiy-iqtisodiy salohiyatning hozirgi holati aniqlanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olimlar va mutaxassislar tomonidan hududlarni guruhlash bo'yicha bir qator takliflar ishlab chiqilgan.<sup>[8, 9, 10, 11]</sup> Hududlarni kompleks rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda (asosan viloyat kesimida) ulardan keng foydalanib kelmoqdalar.

Ushbu uslub tumanlar misolida keng qo'llanilmagan bo'lib, uni amaliyatda qo'llash bir qator samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Jumladan, tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini chuqur tahlil qilgan holda, har bir alohida guruhga taalluqli muammolar va nomutanosiblikni aniqlashda, davlat va mahalliy byudjet mablag'larini samarali taqsimlashda, maqsadli investitsion loyhalarni amalga oshirishda, tumanlararo tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Buxoro viloyati misolida tumanlarni quyidagi guruhlarga ajratgan holda tahlil qilish va qaror qabul qilish imkonи mavjud:

- iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab yuqori, o'ra va past baholangan tumanlar;
- ijtimoiy rivojlanish darajasini aniqlash asosida aholi farovonligi yuqori, o'ra va past tumanlar;
- tabiiy-iqtisodiy salohiyatni baholash natijasiga ko'ra umuman va alohida resurslar kesimida tabiiy zahiralari mavjud, cheklangan va yo'q tumanlar;
- tumanlarni boshqa omil va yo'naliшlar orqali ham (tabiiy geografik joyshuvi, chegaradoshlik, suv va yer resurslari cheklanganlik darajasi, sanoat va xizmatlarni, hunarmandchilikni rivojlanishi holati va boshqalar) maqsadli guruhlarga ajratilgan holda tahlil qilish va aniq tadbirlar ishlab chiqish mumkin.



Tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va prognozlashtirish bir necha hududiy darajada amalga oshirish maqsadga muvofiq. Viloyat darajasida, tumanlar kesimida iqtisodiyotni hududiy tartibga solish lozim. Bu jarayon, asosan, tumanlararo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi farqlarni kamaytirishga qaratiladi.

Alohibda tumanlar darajasida tahlil va prognozlashtirish, mahalliy tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqan holda, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi.

Tumanlarni, o'z navbatida, hududiy tarkibi ham bo'lib, ular mahallalar va alohibda qishloqlarni o'z ichiga oladi. Shu sababli tumanni mahallalar kesimida asoslanishi ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni real sharoitni hisobga olgan holda obyektiv bo'lislini ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики.-М.: Высшая школа. 2007 г.
2. Абдусалямов М. О целях и методологических основах региональной политики. Ташкент. 2015 г..
3. Soliev A. Mintaqaviy iqtisodiyot va uning ahamiyati. Toshkent. 2015
4. Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексным развитием регионов Узбекистана. Ташкент. 2002 г.
5. "Obod qishloq" dasturi to'g'risidagi O'z.Resp.kasi Prezidentining PF-5386 Farmoni 2018-yil 29-mart
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi 2020 yil 1 maydag'i ПҚ-4702 qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyati va o'z-o'zini band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi ПҚ-4742 qarori. Toshkent. 2020.8iyun
8. Nazarov Sh. X. va boshqalar. Hududlarni boshqarish strategiyasi. Toshkent 2017.-144 b.
9. Садиков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. Ташкент. 2005 г. -165.
10. Otaboev Sh.X. Hududlar reytingini baholash metodikasini takomillashtirish. XI-iqtisodchilar Forumi materiallari. Toshkent 2019. 445-451-b.
11. Шарипов Ш.И., Устойчивое развитие сельской местности в труд избыточном регионе. М.2011,-с 208-210



**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

